

ELDA E'ZOZ TOPGAN SHOIR

Mahmudov Zoirbek Tohirjon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti,Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Andijon viloyatining, nafaqat Andijon viloyati bali O'zbekistonning eng yirik , qalami o'tkir shoirlarimizdan biri Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Habibiy haqida so'z boradi. Maqola davomida shoirning hayoti va barakali ijodi haqida so'z yuritiladi. O'quvchi ushu maqola orqali albatta Habibiyning hayoti va ijodi haqida kerakli ma'lumotlarga ega bo'ladi va o'ziga kerakli xulosa chiqarib oladi.

Kalit so'zlar: Habibiy, ota kasb, yosh shoirlar jamiyati, barakali ijodi, A.Navoiyning 500 yilligi, mukofotlar , Habibiy muzeyi.

Raso fa mu bilimdon,
Yaxhilarga oshino bo'ldim,
Bilimsiz notovonu noraso edim,
Raso bo'ldim!
Z.X.Habibiy

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Habibiy 1890-yili avgust oyida Andijon viloyatining hozirgi Paxtabod tumani markazi bo'lmish Qo'qonqishloqda tavallud topgan. Otasi o'rtahol dehqon Xolmuhammad aka ham ma'lum darajada tabiiy nazm kishi edi. Onasi esa mahalla-ko'y ichida "Muallim aya" nomini olgan ayol edi. Bo'lajak shoir Andijon, so'ngra Qo'qon madrasalarida sharq adabiyotini o'rganishga intiladi, "Habibiy" tahallusi bilan mashq qila boshlaydi.

Otasining bevaqt vafotidan so'ng ro'zg'orni tebratish yosh Zokirjonning zimmasida qolgach, u madrasani tashlab , ota kasbi- dehqonchilik bilan shug'llanishga majbur boladi. Zokirjon she'r mashq qilishdan, mustaqil o'qib o'rganishdan to'xtamadi. U o'zi tavallud topgan Qo'qonqishloqda shoir, mulla Qori Zokiriy boshchiligidagi yosh shoirlar to'garagida Mxjuriy, Ashkiy, Mushtoq, Anisiy, Sayfiy kabi ijodkor do'stlari qatori o'z davrining ijtimoiy hodisalarini anglashga intilar, orzularini g'azallarida aks ettirishga harakat qilar edi.

O'sha yillardagi el-yurt boshiga tushgan ommaviy besaramjonliklar , mustabid tuzumining xalqqa o'tkazayotgan zug'umi tufayli adabiy yig'ilish tarqalib ketti.

Shoir tirikchilik g'amida Andijonning Bo'taqara qishlog'iga kelib qoladi. Bu yerda istiqomat qiluvchi shoir Sayfiy bilan Habibiyni qadrdonligi Sayfining vafotiga qadar davom etadi. Sayfining og'li Urfon Otajon otasi vafotidan so'ng domla Habibiy bilan do'stlik rishtalarini davom ettirgan.

1936-yili shoir G'afur G'ulom bilan uchrashdi. Bu haqida Habibiy shunday deb yozgan: "Andijon shahridagi istirohat bog'ida do'stim Sayfiy bilan birgalikda azamat shoirimiz G'ofur G'ulom bilan bilan birinchi bor tanishib , u kishini ziyyarat qildim, tongotar gurunglashdik".

1938-yili Alisher Navoiyning 1941-yilda bo'lishi mo'ljallangan 500 yillik yubleyini o'tkazish qo'mitasi tuzulib, unga taniqli adabiyotshunos olimlar bilan bir qatorda eski madrasa ta'limini oлgan arab, fors tillarini yaxshi biladigon ma'lumotli ijodkorlar- Andijondan Habibiy, Anisiy, Ulfat, Mahjuriy, Rishtondan Bokiyalar taklif qilinadi. Mazkur qo'mitaning ish jarayonlari bu ijodkorlar uchun o'ziga xos adabiy maktab bo'lган

Habibiy shu yillarda Hamid Olinmjon, Oybek, Sadriddin Ayniy, Maqsud Shayxzoda , Xodi Zarif, Solih Mutallibov, Porso Shamsiyev kabi olim va shoirlar bilan tanishdi. Poytaxt ijodiy muhiti uning dunyoqarashi yuksalishida , adabiyot, she'riyat olimini yanada teran anglashida kata ta'sir ko'rsatadi. 1939-yilda shoир Yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilindi.

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Habibiy ikkinci jahon urushi davrida „Jangchi yigit qo'shig'i“, „Boladan ota-onaga xat“, „Onadan bolaga xat“ kabi g'azallar yozadi.

Shoir Uyg'unning ta'kidlashicha, "Habibiy aruzning qonun-qoidalarini, qonun-qoidalarini, sir-asrorlarini mukammal o'zlashtirib, hozirgi she'riyatimizda g'azal ijodi rivojiga munosib hissa qo'shgan o'sha she'r ustasi va ustozи edi. Uning g'azallari tashbeh, tashbeh, mubolag'a, lutf, tasvir va tasvir vositalariga juda boy

Habibiyning adabiy merosi mumtoz o'zbek adabiyotining g'azal, murabba, muxammas, musaddas, ruboiy, tuyuq, qasida va doston singari janrlarida yozilgan 40 mingdan ziyod baytdan iborat. Uning 300 dan ziyod g'azallariga kuy bastalangan bo'lib, ularning aksari hozir ham ijro etiladi. O'zbekiston radiosи oltin fondida shoир Habibiyning 200 dan ortiq qo'shiqlari saqlanib kelinmoqda. Ushbu she'rlarning eng mashhurlari: „Diyorimsan“, „Farg'ona ruboysi“, „Bo'lmasa“, „Yaxshiroq“, „Nima bo'lding“ va boshqalardir¹.

1949-yili "Mehnat qo'shiqlari", "Yangi yallalar" nomli kitoblari nashr etildi. 200 ga yaqin she'r va g'azallari qo'shiqqa aylandi. 1971-yilda Habibiy "Devon" I bosmadan chiqdi.

Habibiy 1974-yili "O'zbekiston xalq shoiri" faxriy unvoniga sazovor bo'ldi. 1980-yilda esa "Xalqlar do'stligi" ordeni bilan taqdirlandi. Zokirjon Habibiy turmush orotg'I Oyimniso aya bilan 2 o'gil, 3 qizni tarbiyalab kamolga yetkazdilar.

Ikki asrning tahlikali va murakkab yillarda yashab ijod qilgan shoир 1980-yili 15-aprelda 90 yoshida vafot etdi.

Hozirgi kunda Andijon viloyatining Paxtabod tumanida Habibiy nomidagi muzey tashkil qilingan va o'z faoliyatini olib bormoqda. Ushbu muzeyda Habibiyning ijodiy faoliayti aks etgan suratlar, kulolchilik buyumlari , uy-ro'zg'or buyumlari hamda shoirning g'azallaridan, she'rlaridan parchalar va kitoblari eksponat tarzida qo'yilgan Ushbu muzeyga har yili maktab o'quvchilari , viloyatdan ilmiy izlanuvchilar va mahalliy aholi tashrif buyurishadi.

Foydalilanigan Adabiyotlar:

- 1.O'zME Birinchi jild. Toshkent, 2000-y.
2. Nosirov O., O'zbek adabiyotida gazal, T.. 1973; Otajon U., Ustozlar xotirasi, T, 1998. Naim Karimov.
- 3.Andijon viloyati tatixi va madaniyati davlat muzeyidan keltirilgan manbaalar.

¹ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Habibiy>